# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MASALASIGA OID

Temirova Muqaddas Azamatovna
Buxoro davlat Pedagogika institute, II bosqich magistri.

**Annotatsiya:**
Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari didaktik o'yinlar asosida tashkil qilish xususida ilmiy-nazariy fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, axloq, tizimlilik, komplekslilik, izchillik, uzluksizlik, tarbiya prinsiplari, milliy-madaniy, tarixiy an'analar, urf-odatlar, umumbashariy qadriyatlar va hokazo.

Bugungi kunda o'rta ta'lim mazmuni va jarayoniga nisbatan qo'yilayotgan asosiy talablardan biri bu o'quvchilarning bilish faoliyatini to'g'ri Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishi, bir so'z bilan aytganda ijtimoiylashuvi uchun, ularning mayyan jamiyatning fuqarosi etib shakllantirish uchun xizmat qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimlilik, komplekslilik, izchillik va uzluksizlik singari tarbiya prinsiplari asosida tashkil etiladi. shakllantirish va rivojlantirish masalasidir.

Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar turli axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan va bu borada anchagina ilmiy-ma'lumotlar to'plangan, tarbiyaviy tizimlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan, amaliyotga tatbiq etilgan. Ammo sinfdan va darsdan tashqari tadbirlarning o'quvchi o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirishdagi ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bulmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat kunikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bulish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda o'quv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yahshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu «Darsdan tashqari ta'limni tashkil qilish davlat talablari» talabalarning bo'sh vaqtini tarbiyaviy ta'lim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bulib, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va milliy dastur g'oyalari asosida ishlab chiqildi.

Zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb va qiziqarli muammolardan biri – bu hali-hamon o'quvchilarning darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarini to'g'ri tashkil eta olish va undan o'rta ta'lim samaradorligini oshirishda unumli foydalana olish muammosi bo'lib qolmoqda. Va

bunga qator asosli dalillar ham mavjud. Inson hayotga yaxlit bir xilqat, fenomen sifatida kirib keladi. Insonning hayot faoliyati uning rivojlanish darajasi va shaxs sifatida shakllanishiga har doim o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Eng oliy insoniy qadriyatlarni bolalarga yoshligidanoq singdirib borish, uning kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun asos bo‘ladi. Sog‘lom tug‘ilgan har bir bola faoliyatning turli sohalariga oid qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda keng imkoniyatga ega bo‘lib hisoblanadi.
Olimlarning ta’kidlashlaricha, qobiliyatlar o‘z-o‘zidan rivojlanib, yetilmaydi, uning shakllanishi bola hayotiy tajribasi orqali uning ongiga singib boradigan yangi-yangi tushunchalarning tarkib topib borishiga bog‘liq. Shu hayotiy tajriba bolada qancha oldin paydo bo‘lsa, bu uning rivojlanishi uchun shuncha yaxshi bo‘ladi.
O‘rta ta’lim jarayonida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - bu bolalarga estetik, ekologik, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o‘hshash boshqa turdagi tarbiya turlarini shakllantirishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo maktabda utkaziladigan, o‘quvchilar his-tuyg‘usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, tugaraklar faoliyatida milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Masalan, estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadida bolalar saroylari, bolalar va usmirlar ijodiyot markazlarida doirachilar, paqs, vokal-cholg‘u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va paqs, uzbek xalq cholg‘u dastalari, xor studiyasi, qo‘g‘irchoq teatri, drama tugaragi, san’atsevarlar klublari tashkil etiladi.
Tugarak a’zolari ushbu dasta, tugarak va klublarda san’atni sevishga, ardoqlashga, san’at orqali go‘zallikni kura bilishga, shu go‘zallik orqali uz ona yurtini ulug‘lashga, undagi go‘zallikni, chiroyni asrab qolishga intiladi.
Darsdan tashqari ta’lim jarayonida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va tugaraklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. O‘quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tarixi, ularning muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o‘rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to‘g‘pisida ma’lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg‘urish iymon-e’tiqod ramzi ekanligi uqtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.
Darsdan tashqari ta’lim jarayonida, shuningdek, o‘quvchilarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me’yorlari va qoidalari to‘g‘risida keng ma’lumotlar berib boriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1.Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA O ‘ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
2.Ahmadovich H. H. et al. O ‘RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO ‘G

‘RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 349-350.
3.Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O ‘QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 293-294.
4.Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA O ‘ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 332-334.
5.Ahmadovich H. H. et al. O ‘QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 343-345.
6.Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O ‘QUVCHILAR O ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
7.Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O ‘YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 100-102.
8.Ahmadovich H. H., Amrulloyevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 248-250.
9.Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-145.
10.Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.
11.Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.
12.BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O’QUVCHILAR O’ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O’RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.
13.Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.
14.Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
15.Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
16.Khoja o’g’li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using

Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.

17.Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.

18.Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.

19.Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.